

**"TASDIQLAYMAN"**

"Urganch innovatsion university" ilmiy ishlar va

innovatsiyalar bo'yicha prorektori

M.Masharipov

2025-yil



yanvar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi 2024-yil 27-dekabrdagi PQ-462-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Urganch innovatsion universitetida

### **«MAHMUDXO'JA BEHBUDIY — TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING ASOSCHISI»**

mavzusida 2025-yil 17-yanvar sanasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman

#### **HISOBOTI**

**1. Anjuman mavzusi: «Mahmudxo'ja Behbudiy — Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi».**

**2. Anjuman maqomi:** Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman.

**3. Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazish uchun asos:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida» 2024-yil 27-dekabrdagi PQ-462-son qarori asos qilib olindi.

**4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:**

- Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatchilik, matbaachilik, jurnalistika, dramaturgiya va islohotchilik faoliyatini chuqur o'rganish, uning O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ijtimoiy hayotiga qo'shgan hissasini tahlil qilish

- Mahmudxo'ja Behbudiy hayotiy faoliyati va merosini chuqur o'rganish orqali bugungi avlodda tarixiy xotira, milliy g'urur va ma'naviy qadriyatlarga hurmatni oshirish

- Uning ma'rifiy g'oyalari va ularni jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini yoritish orqali zamonaviy yoshlar uchun ibrat namunasi yaratish

- Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati bilan bog'liq ilmiy manbalar va arxiv materiallarini tadqiq etish

- Behbudiy ijodiy merosining bugungi o'zbek jamiyatida dolzarbligini aniqlash va ilmiy-tahliliy asarlar yaratish

- Behbudiy asos solgan milliy uyg'onish davri g'oyalari va ularning zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini muhokama qilish

- Uning dramaturgiya va jurnalistika yo'nalishidagi ishlari asosida milliy madaniyat rivojlanishidagi ahamiyatini baholash

- Yosh avlodni Behbudiy merosini o'rganishga jalb qilish va shu mavzuda ilmiy-ijodiy ishlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash

- Anjuman davomida zamonaviy ma'rifiy va islohotchilik jarayonlariga oid fikr-mulohazalar almashish va yangi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish.

**5. Muhokama qilingan muammolar:**

- O'sha davrda Behbudiyning xalq ma'rifat-ma'naviyatida tutgan o'rni

- Drama sohasiga qo'shgan hissasi

- Turkistonda mustaqil davlat shakllantirish uchun qilgan tashabbuslari

- O‘zbek tili uchun Behbudiy yaratgan qonuniyatlar
- Davlat boshqaruvi jarayonlari uchun Behbudiyning qilgan loyihalari va bu loyihalarning bugungi kundagi ahamiyati.

## **6. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.**

### ***Ilmiy samaradorlik:***

– Behbudiyning ilmiy va ma’rifiy merosi bilan bog‘liq yangi ma’lumotlar ochilishi: Anjuman davomida tadqiqotchilar tomonidan ilgari e’tibordan chetda qolgan arxiv materiallari va asarlar o‘rganilib, yangi ilmiy natijalar taqdim etiladi.

– Akademik hamkorlikni kuchaytirish: Mahmudxo‘ja Behbudiya oid ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha mahalliy va xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan aloqalar mustahkamlanadi.

– Ilmiy asarlarning nashri: Behbudiylar faoliyati va uning milliy uyg‘onish g‘oyalari haqidagi ilmiy maqolalar to‘plami, monografiyalar va ilmiy nashrlar chop etiladi.

### ***Ijtimoiy samaradorlik:***

– Yosh avlodning tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini rivojlantirish: Behbudiylar merosi asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, yoshlarni tarixiy shaxslar ibratidan ilhomlanadir.

– Jamiyatda ma’rifiy qadriyatlarni mustahkamlash: Behbudiyning islohotchilik g‘oyalari bugungi zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi.

– Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish: Uning dramaturgiya va jurnalistika sohasidagi ishlari asosida zamonaviy badiiy va teatr loyihalari ishlab chiqiladi.

### ***Iqtisodiy samaradorlik:***

– Turizmni rivojlantirish: Behbudiylar faoliyati bilan bog‘liq tarixiy joylar va obidalarning targ‘ib qilinishi orqali ilmiy va madaniy turizmga qiziqish ortadi.

– Mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish: Anjuman davomida tashkil etilgan ko‘rgazmalar, nashrlar va madaniy tadbirlar iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi.

– Ta’lim va ilm-fan sohasiga investitsiyalarni jalg qilish: Behbudiyning merosini o‘rganish bilan bog‘liq yangi dasturlar va loyihalar orqali ta’lim sohasida qo‘srimcha iqtisodiy resurslar yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

Anjuman natijalari nafaqat ilmiy hamjamiyatga, balki keng jamoatchilikka ham katta foyda keltiradi va Behbudiyning boy ma’naviy merosini bugungi kunda ham dolzarb ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

## **7. Anjumanda soha mutaxassislarining, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi:**

Mazkur respublika anjumanga universitet mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda Samarqand, Farg‘ona, Toshkent shahridagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari, tashkilotlarining yetakchi olimlari, professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va talabalar ishtirok etishdi.

## **9. Anjumanni o‘tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki:**

Anjumanda universitetning yetakchi mutaxassislar, boshqa oliy ta’lim tashkilotlari yetuk olimlari, professor-o‘qituvchilar ishtirok etishdi. Anjuman 17-yanvar soat 10:00 da boshlanib, shu kuni 12:30 da o‘z nihoyasiga yetdi.

Urganch innovatsion universiteti rektor maslahatchisi, professor Xushnut Bobojonov anjumanni ochib berdi. So‘z boshida professor Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham yozuvchi, ham noshir ham pedagogligini alohida ta’kidlab xalqni ilm-ma’rifatli qilish uchun ko‘rsatgan fidoyiliklarini aytib o‘di. Ushbu anjumanni xalqimiz hayotida

qanchalik muhimligi, ayniqsa yoshlarni ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini aytib o’tdi. Jadidchilik namoyondalarini xotirasini abadiylashtirish muhimligi bo‘yicha fikrlar bildirdi.

Shundan so‘ng jadidlar hayot tarzini, ular uchragan qiyinchililarni tasvirlab qilingan videorolik namoyish etildi.

Hozirgi kunda Samarqand viloyatida istiqomat qilib kelayotgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning nabirasi Shohrux Behbudiylar so‘zga chiqib, universitet rahbariyatiga jumladan, shu anjumanni tashkilotchilariga chuqur minnaddorchilik bildirdi. O‘zining bugungi kundagi faoliyati bilan tanishtirdi. «O‘zbek va xorijiy filologiyasi» kafedrasи mudiri, PhD., dotsent Q. Ollayorov tomonidan M.Behbudiyning asarlari, undan qolgan ilmiy yodgorliklardan hozirgi kunda qayerda saqlanayotganligi to‘g‘risidagi savoliga Shohrux Behbudiylar albatta bularning hammasi davlat muhofazasidagi arxivlarda va M.Behbudiylar nomidagi muzeylarda saqlanayotganligi va tegishli tashkilotlardan ruxsat olgan holda bemalol foydalana olish mumkinligi haqida aytidi. Bundan tashqari bugungi kunda olimlarning sharofati bilan ikki tomlik tanlangan asarlari chop qilinganligi alohida ta’kidlandi.

Keyin so‘zga Universitet prorektori, dotsent Nurbek Matyaqubov chiqdi. U mustaqillik yillarda jadidchilik harakati namoyondalariga bo‘layotgan e’tibor ayniqsa oxirgi yillarda ushbu sohda prezident qaror va farmonlari bilan rivojlanib borayotganligini aytib o’tdi. 2023-yil 22-dekabrdagi kengashda prezidentimiz jadidchilar uchun o‘zini fikrini bildirib, «Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyalari bilan hamohangdir» deganlarini alohida takidlab o’tdi. Bundan tashqari ma’naviy, mafkuraviy janglar shiddat bilan davom etayotgan bugungi kunda aynan jadidchilarning xalq ma’naviyati uchun qilgan ishlarini o‘rganish, ularni yoshlarga namuna sifatida ko‘rsatish zamon talabi ekanligini keltirib o’tdi. Behbudiyning «Bizlarni xonavayron qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir», «Faqirlik, darbadarlik, horliklarning hammasi ilmsizlikning mevasidir» degan fikrlar bugungi kunda dozlarb mavzulardan biri sifatida ko‘rilayotganligi aytildi. Bundan tashqari Behbudiyning tavallud topishi va faoliyati qanday bir siyosiy og‘ir jarayonga to‘g‘ri kelganligi, bu davrda unga nisbata chor rossiyasi tomonidan zulm haqida ham aytib o’tildi. M.Behbudiyning ikki marta haj safarida bo‘lganligi, safar davomida Misr, Turkiya davlatlarida bo‘lib ulardagi milliy ozodlik harakati tarafdorlari bilan uchrashuvlari haqida ham aytib o’tildi.

Shundan so‘ng so‘z Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti «O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik» kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovga berildi. Professor Mahmudxo‘ja Behbudiylar «Kitobat ul-atfol» darsligida o‘rgatishga mo‘ljallangan xat turlarini bo‘yicha ma’lumot berdi. Bundan tashqari davlat boshqaruvi tizimlari, davlat organlarining qanday faoliyatlar bilan shug‘ullanishlari to‘g‘risidagi Behbudiyning fikrlari bilan o‘rtoqlashildi. Bundan tashqari siyosatga doir nazariy qarashlari uning «Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiyligi va namunai jug‘rofiya» darsligida, «Duma va Turkiston musulmonlari», «Xayr ul-umuri avsatuh», «Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz» va shu kabi publitsistik maqolalarida ifodasini topganligi aytib o’tildi.

Behbudiylar uch xil boshqaruvi uslubi haqida yozadi:

1. Idorai mustaqalla (idorai mutlaqa).
2. Idorai mashruta.
3. Idorai jumhuriyat.

«IDORAI MUSTAQALLA»ning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

— bunda hukmdorning istagi — qonun, ya’ni u sohibi ixtiyor. Boshqacha aytganda, vakolatlari mutlaqo cheklanmagan;

- qo‘l ostidagi barcha majlis, maslahatxonalar hukmdorga bo‘ysunadi, uning aytgani aytgan, degani degan;
- hukumat, valiahdlik qoidalari asosida, «o‘shal hukumatni qo‘ygan tartib va tadbirig‘a muvofiq» (243) bo‘ladi.
- idorai mustaqalla, bugungi ibora bilan aytganda, davlat boshqaruvining monarxiya yoki avtoritar usuliga to‘g‘ri keladi.

«IDORAI MASHRUTA» quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- bu hukumatga tobe odamlar aksari dunyodan xabardor ilm ahllari. «El va urug‘lari ilm, hunar va dunyo ishlarig‘a taraqqiy qilgan»;
- fuqarolar o‘z oralaridan insofli, ilm va dunyodan xabardor kishilarni o‘zlariga rahbar va boshqaruvchi vakil etib saylaydilar;
- «saylangan vakillarni podshoh muqarrariy mahkamalarg‘a, mamlakatdorlik ishlarig‘a jamlaydi... Alarni(ng) majlis va mahkamalarini «millat majlisi», «maslahatxona», «parlament», «go‘sudarski dum», «majlisi sinodiy», «el majlisi» degan ismlar ila yod qiladur» (243);
- «Millat majlisi» a’zolari hukumatni mashvarat bilan boshqaradi. Hukmdor bu majlis amriga bo‘ysunadi. Mamlakat taqdiri bilan bog‘liq masalalarni shu majlisda muhokama etmay, o‘z xohishicha hal etolmaydi.

Mamlakat boshqaruvining bu usuli konstitutsiya va parlamentga tayanuvchi davlat xususiyatlariga muvofiq keladi.

«IDORAI JUMHURIYAT»ning o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- aksar fuqarosi ahli ilm. Keng dunyoqarashli aholi saylagan vakillar o‘z mamlakat va hukumatini boshqarmog‘i uchun oralaridan bir nafar donishmand odamni boshliq etib saylaydi. U «raisi jumhuriyat», «sadrinoshini millat» yoki «prezident» deb ataladi;
- bunday hukmdor har bir hukm va amrini «Millat majlisi» tuzib bergen dasturulamal, ya’ni qonun va nizomnomalarga muvofiq amalga oshiradi;
- bu usul asosida boshqariladigan hukumatda «Millat majlisi» katta vakolatga ega. Hatto vazir va unga tenglashtirilgan mansabdorlarni taftish qilish, tergovga tortish, lavozimidan ozod qilish huquqlariga ega.

Boshqaruvning «idorai jumhuriyat» usuli, zamonaviy ibora bilan aytganda, chinakam huquqiy demokratik davlat xususiyatlarini o‘zida mujassam etgani bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari Behbudiy «Sotsializmga doir ilgari surilgan fikrlarning g‘ayriaxloqiy bir savdoi xayoldan iboratligini, bilmadim, gapirishga hojat bormi? Menimcha — yo‘q. Eski usulni tashlamoqchi bo‘lgan sotsialistlar yomg‘irdan qochib qorga tutilgan kimsalarga o‘xshaydi. Tamoman barobarlik emish! Ham moddiy, ham ma’naviy. Insonlar yaratilishda barobar yaratilmaydilarku! Ba’zimizda quvvat, ba’zimizda zehn ko‘proq bo‘ladi. Meros bo‘lmasmish! Bu nima degani? Ota nafsi qiyib, bolalariga nimadir to‘playdi, lekin u o‘rtaga qo‘yilib, har kimga taqsim qilinadi! Buning nimasi barobarlik? Nimasiadolat?.. Gapning qisqasi, butun mamlakat, inson jamoasi bir kazarmaga aylanadi: aholi burg‘u bilan turadi, burg‘u bilan ishga ketadi, burg‘u bilan umumiyl dasturxonga chaqiriladi, burg‘u bilan zavq-u safo oladi... Ofarin, sotsialistlar! Naqadar «go‘zal» bir «madaniyat», naqadar «go‘zal» bir yashash tarzi qurmoqchi ekansiz!» deya fikr bildiradi va I.Gasprinskiy bu fikrlarni qo‘llab quvvatlaydi deya professor Nurboy Jabborov so‘zini yakunladi.

Keyingi ma’ruzachi Dilafro‘z Rahmatova – Samarqand davlat chet tillari instituti, «O‘zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi» kafedrasи katta o‘qituvchisi, PhD o‘zining «Mahmudxo‘ja Behbudiy – yetuk tilshunos» mavzudagi maruzasini o‘qib berdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida avval umumturkiy tillar yaxlitligi g‘oyasini ilgari

surgan. Asarlari matnida tilning taraqqiyotida shu paytgacha muhim an'analarni saqlab turgan arab va fors tillari ta'sirida ekanligini namoyon etgan. Behbudiy umrining oxirigacha shu fikridan qaytmagandek bo'lsada, izlanishlarimiz natijasida shu jihat ayon bo'ldiki, adib ijodining keyingi yillarida soddaroq yozishga harakatlar bor. Adibning «Ikki til emas – to'rt til lozim» maqolasida ham zamonasining har tomonlama ilg'or kishisi bo'lish uchun to'rt tilni bilish lozimligi ta'kidlanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidlarni va boshqa barcha ziylilarni mushohadaga chorlagan narsa – adabiy til va ona tili o'rtasidagi farqni isloh qilishdan iborat edi. O'sha davrda ham Turkiston ko'p millatli o'lka ekanligi, buning ustida sheva va lahjalardan foydalanishdagi tartibning yo'qligi, rus va Yevropa tillaridan so'zlarning kirib kelishi adabiy til haqida yagona bir fikrga kelish shartligini taqozo etardi. Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati davomida «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini nashr qilishi, o'z uyida kutubxona tashkil etishi, hukumat vakillariga maktublar yo'llab, milliy til va mustaqil davlat barpo etish borasidagi sa'y-harakatlari haqiqiy vatanparvarlik belgisidir. Adibning til haqidagi qarashlari bir nechta maqolalarida namoyon bo'lib, «Tarjumon», «Dirilik», «Sho'ro» va mahalliy «Turkiston viloyatining gazeti», «Oyina», «Samarqand» gazeta va jurnallarida aks topgan. Bu borada «Behbudiy – o'zbek tilining jarchisi» maqolasining muallifi S.Karimov quyidagilarni yozgan edi: «O'tgan yuz yilga yaqin vaqt orasida biz uchun iste'molda bo'lgan tillarga nisbatan munosabat, ularning iste'mol uchun muhimlik darajasi ma'lum ma'noda o'zgargan bo'lishi mumkin, albatta. Ammo til falsafasini, mantiqini, uning ijtimoiy ahamiyatini nihoyatda zukko anglagan olim muhim bir g'oyani ilgari suradi: til bilmoq lozim. Qancha ko'p til o'rganilsa, dunyoni anglamoq shuncha oson kechadi». Bu fikrning bugungi kun uchun xam nechog'lik ahamiyatli ekanligini hammamiz yaxshi anglab turibmiz. Ismoilbek Gaspirali va uning Turkistondagi hammaslagi Mahmudxo'ja Behbudiyning butun turkiy tillarni birlashtirish va yagona adabiy til barpo etish haqidagi g'oyalariga qarshi chiqadi. O'sha davrdagi tilni shevalar, turli o'zlashmalardan ozod etish, mukammal darajaga olib chiqish choralarini izlaydi. «Mehnatkashlar tovushi» gazetasidagi «Til masalasi» maqolasida nihoyat darajada zarur bo'lgan til masalasi ko'tariladi. Turkiy (o'zbek tilini – D.R.) tilni rasmiy til darajasiga olib chiqish g'oyasi ilgari suriladi. Adib, hatto buning uchun hozirga qadar o'zbek tilini ixtiyorsiz o'rganib kelinayotganligini, buning natijasida tilimiz muhofazasi sustlashib qolganligini ta'kidlaydi. Tilni muhofaza qilish, huquqimizni, davlatimizni muhofaza qilish demakdir, deb kuyinadi. Mustabid tuzum davrida ruslashtirish iskanjasidan qutuldik, deb umid qilgan adib endi maktablarimizda ona tilimizda ilm olishga yo'l ochilganidanini ta'kidlaydi. Mustaqil Turkiston o'lkasining 95 foizi turkiy muslimon bo'lgani holda nega tilimiz rus tili darajasida huquqli emasligini yozgan. «Rus tili bilan huquqda barobar» bo'lishi uchun o'zbek tilini rasmiy hukumat tili doirasiga ko'tarish lozimligi ta'kidlangan.

Ma'ruzachi Dilafro'z Rahmatovaning ma'ruzasidan keyin Mahmudxo'ja Behbudiy hayotiy faoliyati, uning Turkiston mustaqilligi yo'lida qilgan ishlari o'rganilgan videorolik anjuman qatnashchilariga qo'yib berildi.

Keyin so‘z Urganch innovatsion universiteti prorektori, PhD., dotsent Mansurbek Masharipovga berildi. Mansurbek Masharipov Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zbek tili shakillanishida tutgan o‘rni haqida aytib o‘tdi. Bundan tashqari o‘zining doktirlik dissertatsiya ishi mavzusi ham Behbudiyning ilmiy faoliyati bilan bevosyita bog‘liqligi munosabati bilan qilgan tadqiqotlari haqida o‘rtoqlashdi. O‘zbek tilshunosligida jadid ma’rifatparlarining tilshunoslik merosi, ular yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning til xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, olingan ilmiy natijalar o‘zbek milliy tilining XIX asrning oxiri XX asr boshlari bosqichi, uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilining muhim lisoniy xususiyatlari haqida yetarlicha tasavvur bera olmaydi. Turkiston jadidlarining ma’naviy yo‘lboshchisi, serqirra ijod sohibi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiylarining ijodi va foliyatining davr ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotiga ta’siri yuqori bo‘lgan. Bu, o‘z-o‘zidan, keyingi yillarda adib ijodi va faoliyati bo‘yicha pedagogika, falsafa, tarixshunoslik fan sohalarida ham salmoqli tadqiqotlarni yuzaga keltirdi. Bunday muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoning hali etilishida ma’rifatparvar jadid adiblari tomonidan yaratilgan barcha janrdagi asarlarning lingvistik tadqiqini amalga oshirish lozim bo‘ladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslik faoliyati va u yaratgan badiiy asarlarning lingvistik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligidagi ba’zi ishlar istisno qilinsa, mukammal darajada tadqiq etilgani yo‘q. Jumladan, akademik G‘. Abdurahmonov o‘z maqolasida adib asarlarining umumiyligi xususiyatlari, lug‘aviy tarkibi va uning XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi ahamiyatini ko‘rsatishga harakat qilgan bo‘lsa, F.Bobojonov o‘z tadqiqotida jadidchilik vakillari yozgan dramalarning o‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishidagi rolini Behbudiylar va Avloniy asarlari leksikasi misolida baholashga intilgan. Umuman olganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik faoliyati XX asr boshlaridagi yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanish davriga, til birliklarining me’yorlashishidek murakkab jarayonga, ya’ni «eskilik» bilan «yangilik» o‘rtasida kurash borayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi. Tildagi me’yoriy ko‘rinishlarning tanlana borishi, davr adabiy tilini shakllantirish ishiga Mahmudxo‘ja Behbudiylar ham publitsistik asarlarining tili va uslubi orqali sezilarli hissa qo‘shdi deya so‘zini yakunladi ma’ruzachi Mansurbek Masharipov.

Shundan so‘ng universitet tarix yo‘nalishi talabasi Otaboyeva Ro‘za o‘zining «Mahmudxo‘ja Behbudiylarining ijodida ta’lim masalasi» mavzusidagi maqolasi bilan so‘zga chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiylar – XX asr boshlaridagi o‘zbek jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, o‘zining asarlarini va faoliyati orqali millatni ravnaq toptirish yo‘lida muhim qadamlar tashlagan shaxsdir. U ta’lim masalasiga katta e’tibor qaratgan bo‘lib, bu mavzuni o‘z asarlarida yoritgan. Ushbu maqolada Behbudiyning ta’limga bo‘lgan qarashlari, uning asarlaridagi ta’limga oid g‘oyalar hamda bu g‘oyalarning zamonaviylik jihatlari tahlil qilinadi.

Ayni damda o‘zini anglagan yuksak farovon turmush tarzini yaratishni maqsad qilgan jamiyat uchun ta’lim-tarbiya muhim va zaruriy vosita sanaladi. Yangi O‘zbekiston barpo etilishida ta’lim-tarbiya, umuman ma’rifatni keng jamoatchilik orasida chuqr targ‘ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiylar: «Matlabim –

*arzi hunar va izhori fazl emas, ahli Vatanga qo'limdan kelguncha bu xizmatdir», deya millatga yuksak hurmatini ifoda etgan.*

Turkiston xalqining milliy qahramoni, jamoat, madaniyat va maorif arbobi, ulug' matbuotchi, adib, birinchi o'zbek dramaturgi va tarjimon Mahmudxo'ja Behbudiydir. Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy gazeta-jurnallar, kitoblarni mutolaasiga qattiq kirishadi. Zamona voqealari bilan tanishib, siyosat va ma'rifikat sohasida ro'y berayotgan yangiliklarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Xalqning ma'rifikatsizligini, ziyorolar sonining kamayganini ko'rib, el-yurt, avvalo oilasida ma'rifikatni kuchaytirishga harakat qiladi: farzandlari ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi. Xususan, u bolalariga xususiy o'qituvchilar yollab, rus, fransuz va boshqa xorijiy tillarni o'rgatishga harakat qilgan.

Behbudiy maorif tizimining islohotini umummamlakat, umummillat muammosi deb bildi va bu masalada Ismoil G'aspirinskiyning Turkistondagi hammaslagiga aylandi. Shu sababdan, do'sti Abdulqodir Shakuriyning yangi usuldagagi maktab ochish xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatladi. Maktab bolalari shahardan tashqariga qatnab qiynalayotganini sezgan Behbudiy Samarqand harbiy voliyidan maxsus ruxsatnomasi olib, Shakuriy maktabini o'z mahallasidagi hovlisiga ko'chiradi. 1906–1907-yillar mobaynida maktab faoliyati ancha jonlanadi. Behbudiy maktab uchun darsliklar yozib beradi, chet eldan olib kelgan adabiyotlar va xaritalar bilan ta'minlaydi.

Behbudiy «*Nashriyoti Behbudiya*» nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochadi. Fitratning «*Bayonoti Sayyohi Hindi*» asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr ettiradi. Shuningdek, Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqaradi.

Behbudiy 1908-yilda «*Qiroatxonayi Behbudiya*» (keyinchalik «Behbudiya» nomi bilan mashhur bo'lgan) kutubxonasini ochgan. Ushbu kutubxona ikki navbatda – soat 9:00 dan 17:00 gacha va soat 18:00 dan 24:00 gacha ishlab, 60 dan 110 tagacha bo'lgan kitobxonga xizmat ko'rsatgan. Behbudiy «Samarqand Kutubxona Islomiyasi» maqolasida kutubxonada 600 ta kitob va risola, gazeta va jurnallar esa undan ham ko'p bo'lganini yozadi. Behbudiyning ta'limga oid qarashlari uning «*Padarkush*» asarida o'z aksini topgan. Ushbu asarda Behbudiy ilmsizlikning oqibatlari va uning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri haqida so'z yuritadi. Asarning asosiy g'oyasi – yoshlarni ilmga chorlash va eskicha qarashlardan voz kechishga undashdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Mahmudxo'ja Behbudiy ta'limni millatning yuksalishidagi asosiy omil sifatida ko'rgan. U: «*Millatni yo'qotish uchun uni johil qoldirish kifoya*», degan fikrni ilgari surib, ilm-fan va ma'rifikatning ahamiyatini ta'kidlagan. Shuning uchun ham u ta'lim masalalarini o'z davrining eng dolzarb muammosi sifatida ko'rgan va bu yo'nalişda ulkan mehnat qilgan. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'limga oid g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan degan fikirlari bilan talaba o'z nutqini yakunladi.

So'z so'ngida yozuvchilar uyushmasi a'zosi Sayyora Samandarovna Behbudiy ijodidagi sof vatanparvarlik ruhini tafsinga loyiq ekanligini aytib o'tdi. Vatanni sevish, uning har qarich yerini e'zozlashda yoshlarga o'rnak sifatida Mahmudxo'ja Behbudiyni, uning yaratgan asarlarini keltirish mumkinligini aytdi. Shu bilan birga anjuman qatnashchilariga, uni tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsagan universitet ilmiy bo'lim jamoasiga chuqur minnaddorlik bildirdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki jadidchilik namoyondalarining har bir qilgan ishlarida yurt manfati, xalq kelajagi bиринчи о‘рнда qо‘yilgan. Zero, biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqr o‘rganishimiz lozim.

Anjuman yakunida barcha ishtirokchilarga seritifikatlar taqdim etildi.

### *Ilmiy-amaliy anjumandan fotolavhalar*





Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektori, PhD., dotsent

M.Masharipov

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo'limi boshlig'i

A.Abdullayev